Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320622

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ko'lamini, auditorlarning hisobot turlarini, metodologiya masalalarini, audit o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar, ushbu kasbning barcha vakillari amal qilishi kerak bo'lgan asosiy printsiplarni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli Qarori

13. Meliyev I.I. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024-yil, yanvar. № 1-son. 220-226.

14. Бунина А.Ю., Павлюченко Т.Н. Особенности отражения операций с внеоборотными активами в соответствии с положениями международных и российских стандартов // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2020. – № 2 (65). 188-195 с.

15. Логвинова Т.И. Методический инструментарий риск-ориентированного аудита учётной информации об основных средствах в сельском хозяйстве / Т.И. Логвинова, Е.Ю. Дьяченко // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2018. – Т. 11, № 2 (57). – С. 200–207.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi
Oriental universiteti, PhD.
rguli617@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari haqida atroflicha tushuncha berilgan hamda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolarini tizimli o'rganishning ilk davridan boshlab, hozirgi zamon olimlari tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar talqini hamda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot, globallashuv, sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish, zaxira, narx, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, eksport, import.

So'nggi yillarda respublikamizda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi[56].

Bu kabi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona oziq-ovqat xavfsizligi siyosati hamda soha negizini tashkil etuvchi normativ-huquqiy bazani mustahkamlab borilishida deyish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"dagi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

[56]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stastistika milliy agentligi ma'lumoti.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi (2024). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320622
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” PF-5853-sonli hamda 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son bilan tasdiqlangan Farmonlari kabi bir qator sohaga oid hujjatlarni asos qilib keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda”[57] – deb ta’kidagani, sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni hal etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni jadallashtirish muhimligini anglatadi. Jumladan, mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoni qabul qilindi hamda ushbu hujjatning 1-ilovasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi” tasdiqlandi.

Fikrimizcha sanoatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda yetarli darajada iqtisodiy samaradorlikka erishsih uchun, avvalo soha uchun ustuvor yo’nalishlarni oldindan aniqlashtirib olish hamda tarmoqni rivojlantirishdagi nomutonosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo’shimcha qiymat yaratishning uzun va samarasiz zanjirlari, logistikadagi uzilishlar kabi real xatarlarni inobatga olgan holda qaror qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda uning iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirish uchun, sohaga avvalo sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini va eksport ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish yo‘llari quyidagi bir qator omillarga bog‘liqdir:

1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholining barcha qatlamlari sog‘lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish.
2. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish.
3. Sohaga investitsiyalarni jalb etish va raqamli texnologiyalarni joriy etish.
4. Favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun samarali bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan strategik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining davlat nazorati ostidagi zaxirasini yaratish.
5. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish hamda milliy zaxiralar va narxlar barqarorligini ta’minlash.
6. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va kuzatuv ma’lumotlarini tahlil qilish.
7. Xalqaro darajada ishlab chiqilgan hisoblash va tahliliy dasturlar (Global Food Systems Dashboard, FAOSTAT, UN COMTRADE, World Development Indicators, Global

[57] http://www.president.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya” ishtirokchilariga yo‘llagan nutqidan. Samarqand sh. 07.09.2023 y.

Food Security Indicators va boshqa) ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish, xulosa va takliflar tayyorlash hamda indikatorlarni Milliy axborot platformasida joriy etish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etilishi, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”dagi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” PF-5853-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Saidaxmedova N. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va ustuvor yo‘nalishlari. iqt. fan. dok. diss. avtoref. – T.: O‘MU, 2020.

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI TAHLILI

Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich
Farg‘ona politexnika institute “Menejment” kafedrasi professori, i.f.n.
amahammadjon1977@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyotni erkinlashtirishning mezonlari va ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilgan, tizimli-funktsional yondashuv asosida tahlil qilingan, uning yechimlari o‘rganilgan. O‘rganish va tahlil natijalaridan kelib chiqib, iqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy tizim, milliy iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot barqarorligi, tizimli-funktsional yondashuv,

XXI asrning dastlabki 25 yili davomida jahon siyosiy va iqtisodiy maydonida yuzaga kelayotgan siyosiy va iqtisodiy inqirozlar dunyo mamlakatlari, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy barqaror, mustahkam iqtisodiyotni shakllantirish zamonaviy iqtisodiy tizimning asosiy vazifalari va maqsadlaridan biriga aylanganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Zamonaviy iqtisodiy tizim globallashuv va mintaqaviylashuv jarayonlari ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi, bu uning barqaror iqtisodiy rivojlanishi tendentsiyalarini o‘rganishga printsipial jihatdan yangi yondashuvni qo‘llashni nazarda tutadi.

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy muammolaridan biri bu butun jamiyat iqtisodiy tizimining barqarorligini ta'minlashdir. Barqaror iqtisodiy tizim sharoitidagina milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligi, ijtimoiy barqaror iqtisodiy rivojlanishning pirovard maqsadi bo‘lgan xalq farovonligining o‘sishi ta’minlanishi mumkin.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash – mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi uchun muhim sharti hisoblanib, u ichki va tashqi shoklarga chidamli, resurslardan samarali foydalanadigan va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan barqaror iqtisodiyotni yaratishni talab qiladi.